



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 12-mart, chorshanba,
31 (24.057)-son

O'zbek xalq
maqoli

Ish qilganga
qop-qop,
qilmaganga
bo'sh qop

1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan



www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https://twitter.com/zarnews_uz

FRANSIYA KAPITALI ISHTIROKIDA 3 TA KORXONA ISHLAMOQDA

Amir Temur davrida Samarqand va Fransiya o'rtasida aloqalar o'rnatilgan. O'sha paytdan buyon orada bir qancha tanaffuslar bilan ikki hudud o'rtasida savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar, ijtimoiy-tibbiy loyihalar amalga oshirib kelinmoqda. Ikki davlat do'stlik rishtalarini mustahkamlash uchun 1998-yilda Samarqand va Fransiyaning Lion shaharlari o'rtasida birodarlik aloqalari o'rnatilgan.

Bugungi kunda viloyatimizda Fransiya kompaniyalarining kapitali ishtirokida 2 ta qo'shma korxonaga va 1 ta xorijiy korxonaga mehmonxonaga, savdo xizmati va qayta tiklanuvchi energiya yo'nalishida faoliyat yuritib kelmoqda. 2024-yil yakuni bilan viloyatimiz hamda Fransiya o'rtasida tovar aylanmasi 15,4 million AQSh dollarini tashkil etdi, (eksport 487,5 ming AQSh dollari va import 14,9 million dollar).

Fransiya asosan kiyim-kechak, ichimliklar, sintetik va jun tolalar, mayiz va quritilgan me-

va-sabzavot mahsulotlari eksport qilingan.

Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makronning 2023-yil 1-2-noyabr kunlari yurtimizga rasmiy tashrifi chog'ida Samarqand shahrida Fransuz alyansining filiali ochilgan edi.

Hozirgi kunda Samarqand va Fransiyaning Nitsa shaharlari o'rtasida hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish yuzasidan amaliy ishlar olib borilmoqda.

Viloyat investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi axborot xizmati.

HAMKORLIKDA UNIVERSITET OCHILADI



Davlatimiz rahbarining Fransiya tashrifi oldidan Parij shahrida "Ilm-fan va ta'lim: O'zbekiston-Fransiya ko'prigi" mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston va Fransiyaning 30 dan ortiq oliy ta'lim muassasalari rahbarlari, ilm-fan va ta'lim sohasidagi yetakchi mutaxassislar ishtirok etdi.

Eng yirik loyihalardan biri O'zbekiston-Fransiya universitetini tashkil etish bo'yicha Fransiyaning o'rtta yetakchi oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilishga kelishib olindi, - dedi O'zbekiston Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Q.Sharipov. - Shuningdek, mashinasozlik, yashil energetika, til, informatika yo'nalishlarida kadrlar

tayyorlashni ham rejalashtiryapmiz. Samarqand davlat chet tillar instituti hamda Fransiyaning fransuz tilini o'qitish innovatsion metodik markazi o'rtasida o'zaro tajriba almashish, ta'lim sifatini yanada rivojlantirishda innovatsion loyihalarni amalga oshirish yuzasidan hamkorlik shartnomasi imzolandi.

Adiba KASIMOVA.

Jahon shaxmat ustalari Samarqandda

Samarqandda umumiy sovrin jamg'armasi 50 ming AQSh dollari bo'lgan "Women's Chess Championship" uchinchi xalqaro turniri o'tkazilmoqda.

Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan o'tkazilayotgan turnirda 13 davlatdan 150 nafar jahon shaxmatining ayol ustalari ishtirok etmoqda.

Musobaqa ochilishida so'z olgan O'zbekiston shaxmat federatsiyasi raisi o'rinbosari Komil Sindorov, viloyat hokimligi mas'ullari mazkur turnir 2026-yilda Samarqandda bo'lib o'tadigan 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasiga tayyorgarlik ko'rish, ayol(qiz)lar shaxmatini rivojlantirish, milliy terma jamoa a'zolarining mahoratini oshirish hamda xorijlik mahoratli shaxmatchilar bilan o'zaro tajriba almashish



imkonini berishini ta'kidladi.

Musobaqada o'zbekistonlik reytingi yuqori shaxmatchilardan Umida Omonova, Barchinoy Shokirjonova, Afruza Hamdamova, Marjona Malikova hamda Nodira Nodirjonova g'oliblikka asosiy da'vogar sifatida yurtimiz sharafini himoya qilmoqda.

O'tgan yil shu turnirda 20 yoshgacha bo'lgan qizlar o'rtasida birinchi o'ringa kiritgan edim, - deydi O'zbekiston, Osiyo

va yoshlar o'rtasida ikki karra jahon chempioni, samarqandlik shaxmatchi Afruza Hamdamova. - Bu yilgi turnirda o'tgan yilgidan ham kuchli va reytingi yuqori shaxmatchilar yig'ilgan. Biz ham g'oliblik uchun dona suramiz va eng muhimi, olimpiada oldidan mahoratli shaxmatchilar bilan tajriba almashamiz.

Turnir 19-martga qadar davom etadi.

F.RO'ZIBOYEV.



M-37 avtomagistralining Samarqand tumani hududidan o'tgan qismida, Qoradaryo yoqasida salkam 1 gektar maydonda mevali va manzarali daraxt ko'chatlari ekilgan. Ammo sug'orish tizimi yaratilmagani sababli ko'chatlarning aksariyati qurib qolgan. Bugun hududlarda "Yashil makon" loyihasi doirasida ko'chat o'tqazishda songa emas, sifatga e'tibor qaratsa, ekiladigan ko'chatlarni sug'orish imkoniyatlari yaratilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.



B.MUSTANOV
surat-lavhasi

Yoshlar tezda boyishni istaydi

shu yo'nalishda mahalliy budjetdan nega pul ajratilmaydi?

Gohida odamlar orasida davlat uni qilmadi, budjetdan buni qilish mumkin edi, degan e'tiroz namo gap-so'zlar kuzatiladi.

Tabiiy savol tug'iladi - o'sha aytilganni qilish uchun mablag' qayerdan keladi va qanday ajratiladi? O'zi umuman, o'sha o'rtadagi pul, ya'ni mahalliy budjetning sarflanishida ishtirok etishimiz mumkinmi? Yashirib nima qildik, aksariyatimiz aslida eng oddiy bo'lgan bu savollarga ham tuzukroq javob berolmaymiz. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori, xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati, Kengashning mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi Muhiiddin Po'latov bilan shu xususda va e'tibor qilishimiz zarur bo'lgan jihatlar haqida suhbatlashdik.

(Davomi 2-sahifada) >>>

Korrupsiya keltiradigan zarar siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarga hamda mamlakatning xalqaro maydondagi imiji va investitsiyaviy jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishini ko'pchiligimiz yaxshi bilamiz. Shuning uchun mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Tahlillarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, huquqiy qonunchilikning takomillashtirilishi, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha alohida davlat organining tashkil etilishi, vazirlik va idoralar faoliyatining raqamlashtirilishi natijasida so'nggi 7-8 yilda bu borada muayyan ijobiy natijalarga erishildi.

Xususan, Transparency International xalqaro nodavlat tashkiloti tomonidan Korrupsiyani qabul qilish indeksining 2024-yil natijalariga ko'ra, mamlakatimiz 32 ball to'plab, 2017-yilgi 157 o'ringidan 121 o'ringa ko'tarildi. Qolaversa, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida olib borilayotgan ishlar natijadorligini oshirishda ijtimoiy masalalarga oid ochiq ma'lumotlar ko'lami yanada kengayganligi, ulardan to'siqlarsiz foydalanish imkoniyatlari yaratilganligi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda

fuqarolik jamiyati institutlarining o'z o'rnini bor

Shu bilan birga, ushbu tahdidga qarshi kurashda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari yanada faol bo'lishi zarurligini davrning o'zi taqozo etmoqda. Zero, nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan strategiyalar, chora-tadbirlar, xalqaro aloqalar jamiyat va davlat rivoji uchun g'oyatda manfaatli hisoblanadi.

Keyingi paytda yurtimizda nodavlat notijorat tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashdagi o'rnini va roli tobora ortib bormoqda. Bu ishlarni samarali amalga oshirish uchun fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat sektorining boshqa vakillari faol jalb qilinmoqda. Bunda jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilayotgani ham e'tiborga molik.

Joriy yil 5-mart kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining yig'ilishida fuqarolik jamiyati institutlarini korrupsiyaning oldini olishdagi roliga alohida e'tibor qaratdi.

Davlatimiz rahbari korrupsiyaga qarshi kurash - umummilliy vazifa, har bir vatanparvar yurtdoshimizning

vijdon ishi, bu jarayondan hech kim chetda turmasligi kerakligini qayd etdi. Shu bois korrupsiyaga nisbatan murosasiz bo'lish uchun yanada ko'proq sharoit yaratib, bunga keng jamoatchilikni jalb qilishimiz zarurligi, avvalo, nodavlat tashkilotlar faolligini oshirish lozimligi va bu eng to'g'ri yo'l ekanligi ko'rsatib o'tildi.

Shuningdek, yig'ilishda parlament nodavlat tashkilotlar bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yib, ularning imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq ekanini ta'kidlandi. Masalan, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha konvensiya talablarini monitoring qilishga nodavlat tashkilotlar jalb qilinsa, katta samara berishiga ishonch bildirildi. Ushbu maqsadlar uchun yangi loyihalarni qo'llab-quvvatlashga har yili 10 milliard so'mdan ajratib borilishi aytiladi.

Shu o'rinda e'tirof etish kerakki, korrupsiyaning har qanday turiga qarshi kurashishda davlat fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda ish yuritish maqsadga muvofiq. Buning bir qancha afzal tomonlari bo'lib, u muayyan ko'rinish va mexanizmlarda o'z aksini topgan. Xususan, sohada olib borilayotgan davlat siyosatini

Munosabat



Elyor ULUG'MURODOV,
Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi Samarqand hududiy bo'limi rahbari, xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati.

YOSHILAR

TEZDA BOYISHNI ISTAYDI

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

- Muhiddin Egamberdiyevich, viloyat budjeti – bu viloyatning daromadlar va xarajatlaridan iborat moliyaviy hujjat. U viloyatning iqtisodiy faoliyati va ijtimoiy sohalarni (ta’lim, sog’liqni saqlash, yo’llar, madaniyat va boshqa) moliyalashtirish uchun zarur bo’lgan mablag’lar va ularning manbalarini o’z ichiga oladi.

Suhbatimiz avvalida dastlab viloyat budjetining daromadlariga nimalar kirishi, boshqacha aytganda, daromadlarning shakllanish manbalari haqida aytib o’tsangiz.

- Viloyat mahalliy budjeti tuzilmasiga viloyat budjeti hamda viloyatning tegishli tuman va shaharlar budjetlari kiradi. Amaldagi qonunchilikka asosan soliqning quyidagi turlari to’liq hajmda viloyat budjetiga o’tkaziladi:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (yirik soliq to’lovchilar tomonidan to’lanadigan soliq);

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig’i (yirik soliq to’lovchilar tomonidan to’lanadigan soliq);

benzinni, dizel yoqilg’isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig’i;

Bundan tashqari, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i tushumlari (jismoniy shaxslar mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to’g’risidagi deklaratsiyaga asosan to’laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to’laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’idan tashqari) hamda foyda solig’idan tashqari)

hamda foyda solig’idan tashqari) hamda foyda solig’idan tashqari)

100 foiz viloyat budjetiga o’tkaziladi. Qisqasi, mahalliy budjet boshqa tushumlar bilan birga asosan soliq to’lovlari orqali to’ldiriladi.

Albatta, qonunchilikda davlat daromadiga o’tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan viloyat mahalliy budjetlariga o’tkazilishi belgilangan tushumlar hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo’yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar ham viloyat budjetiga o’tkazilishi belgilangan.

Qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetlarga tushadigan tushumlar tuman va shaharlar budjetlari hamda viloyat mahalliy budjeti o’rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

- Viloyat budjeti jamiyatning har bir a’zosi, xususan, oddiy fuqaro hayotiga ham ta’sir qiladi. Shu sabab fuqarolar budjetni kuzatish va uning to’g’ri ishlatilishi haqida ishonchli axborot manbalariga ega bo’lishlari kerak.

Samarqandliklar bunday imkoniyatga ega!

- To’g’ri, davlat budjeti, qolaversa, viloyat budjeti ham jamiyatning har bir a’zosi, ya’ni fuqarolarga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Budjetning to’g’ri taqsimlanishi va shaffof boshqarilishi fuqarolarning hayot sifatini yaxshilash, infratuzilmani rivojlantirish, ta’lim, sog’liqni saqlash va boshqa ijtimoiy sohalarni qo’llab-quvvatlash uchun muhim.

Shu ma’noda viloyatimiz aholisi budjet taqsimoti va uning samarali sarflanishi bo’yicha yetarli darajada ma’lumot olish imkoniyatiga ega. Jumladan, har yilgi budjet taqsimoti, ijrosi hamda yil yakunlari bo’yicha hisobotlar ommaviy axborot vositalarida, Prezident huzuridagi statistika agentligi saytida, viloyat hokimligi ma’lumotlari saytida “Zarafshon” gazetasi va boshqa vositalarda berib boriladi.

Shu bilan birga, xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlari tomonidan joylarda, aholi vakillari bilan uchrashuvlarda ham bu borada ma’lumotlar yetkazib borilmoqda.

Aslida budjetni tasdiqlashda uning loyihasini faqat biz, deputatlar muhokama qilmaymiz. Bunda har bir saylovchi ishtirok etish imkoniyati yaratilgan. Regulation.gov.uz portali orqali har bir mahalliy budjetdan sarflanayotgan mablag’lar ochiq tarzda xalq muhokamasiga qo’yilmoqda. Portalga kirib, har bir saylovchi sarflanayotgan budjet mablag’lari



to’g’risida ma’lumot olishi va o’z fikrini qoldirishi mumkin.

Ushbu portaldagi muhokamaga qo’yilgach, muhokama tugaganidan keyin masala sessiya kun tartibiga kiritiladi hamda deputatlar tomonidan atroflicha muhokama qilinib, qaror loyihasi tasdiqlanadi.

- Davlatimiz rahbari Oliy Majlis Senatining birinchi yalpi majlisida deputatlar oldida qo’ygan vazifalardan biri mahalliy budjet ijrosi ustidan nazoratni ta’minlash edi. Bu borada siz rahbarlik qilayotgan doimiy komissiya rejalari bilan o’rtoqlashsangiz.

- Haqiqatan ham Prezident Oliy Majlis Senatining saylovdan keyingi birinchi majlisida ishtirok etib, parlament yuqori palatasi oldida turgan dolzarb vazifalarni belgilab berdi.

Mazkur vazifalardan kelib chiqqan holda xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo’yicha doimiy komissiyasi o’z rejalari bilan belgilab olgan.

Demak, doimiy komissiyamiz viloyat mahalliy budjetining tegishli davrdagi ijrosi to’g’risidagi hisobotlarni viloyat hokimining taqdimnomasiga muvofiq har chorakda ko’rib chiqadi va tasdiqlaydi.

Viloyat budjeti daromadlarining prognozlarini ma’lumot uchun qabul qiladi. Mahalliy budjetga o’zgartirishlar kiritish to’g’risida qaror loyihalarni tayyorlab, sessiyalar kun tartibiga kiritadi.

Eng muhimi, budjetlardan moliyalashtiriladigan hududiy budjet mablag’larini taqsimlovchilarning budjet mablag’laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalar to’g’risidagi hisobotlarini eshitadi.

- Gaplaringizdan budjet xarajatlari shakllantirishda deputatlar katta va muhim o’rin tutishini anglash mumkin. Shu ma’noda aytib-chi, o’tgan yilgi viloyat budjet mablag’larining ishlatilishi haqida hisobot bilan tanishgan deputatlar joriy yilgi xarajatlari qismiga qanday takliflar berishdi?

Umuman, bu yilgi budjet xarajatlari o’tgan yilgisidan miqdordan tashqari yana qaysi jihatlar bilan farqlanadi?

- Viloyat budjeti viloyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, infratuzilma, ta’lim, sog’liqni saqlash, madaniyat va boshqa sohalarni moliyalashtirish uchun mo’ljallanadi. U mahalliy darajadagi ehtiyojlar va ustuvorliklarga asoslanib taqsimlanadi.

Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil 26-dekabrda sessiyasida 2025-yil uchun viloyat mahalliy budjeti tasdiqlandi. Bunda “2025-yil uchun O’zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to’g’risida”gi Qonunga muvofiq, viloyat mahalliy budjetining joriy yilgi daromadlari 5 trilyon 915,3 milliard so’m va xarajatlari 8 trilyon 8,6 milliard so’m etib belgilandi. Respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 2 trilyon 93,3 milliard so’m miqdorida tasdiqlandi.

Qayd qilish lozim, budjet mablag’larini sarflashda deputatlar doimiy masalalar bilan bir qatorda ijtimoiy soha xarajatlarga ko’proq e’tibor qaratish, xususan, ijtimoiy to’lovlarni kuchaytirish, “Mening maktabim” loyihasini amalga oshirish, “Tashabbusli budjet” loyihasini moliyalashtirish kabi masalalar bo’yicha takliflar bildirdi.

Pirovardida joriy yil viloyat budjet xarajatlarning 61 foizi yoki 4900,7 milliard so’mi (2024-yilga nisbatan 629,3 milliard so’m ko’p) ijtimoiy soha xarajat-

lari uchun yo’naltirilmoqda.

Bunda ta’lim sohasiga 1370,6 milliard so’m mablag’ ajratilishi rejalashtirilgan.

Sog’liqni saqlash sohasiga esa yil davomida 3 trilyon 238,4 milliard so’m (2024 yilga nisbatan 18,3 foiz ko’p) mablag’ ajratilishi ko’zda tutilgan.

Tashabbusli budjetni moliyalashtirish uchun 639,7 milliard so’m (2024-yilga nisbatan 181,4 milliard so’m yoki 40 foiz ko’p) mablag’, shu jumladan, yangi yo’nalishtirish uchun mahalliy budjetlarda 76,1 milliard so’m (har bir maktab uchun 60,2 million so’mdan) mablag’ rejalashtirilgan.

Iqtisodiyotga yo’naltirilishi rejalashtirilayotgan xarajatlari esa qariyb 635,8 milliard so’mni tashkil etib, jami xarajatlarning 8 foizini tashkil etadi.

- Mahalliy budjet xarajatlari haqida gapira turib, oliy ta’limga ajratma haqida to’xtalmadingiz. Bu esa ushbu sohani budjetdan moliyalashtirish qisqarayotgani, moliyaviy qo’llab-quvvatlash hajmi pasayib borayotganini anglatadi, nazarimda.

Aslida, u ham alohida bir suhbatni taqozo qiladi. Ammo so’ramoqchi bo’lganim, shunday siyosat sharoitida oliy ta’limda, aynan Siz rahbarlik qilayotgan ta’lim muassasasida yoshlarning zamonaviy kadr bo’lishi uchun qanday yangilik, o’zgarishlar bo’ladi?

- Samarqand iqtisodiyot va servis instituti - iqtisodiyot, moliya va xizmatlar sohaslariga mutaxassislar tayyorlaydigan O’zbekistondagi yetakchi oliy ta’lim muassasalaridan biri. So’nggi yillarda institutda ta’lim sifatini oshirish, talabalarni zamonaviy bozor talablariga moslashtirish va ularni amaliyotga tayyorlash maqsadida bir qator muhim yangilik va o’zgarishlar amalga oshirildi.

Xususan, institutdagi ta’lim dasturlari jahon bo’yicha TOP-300 talik reytingga kirgan xorijiy oliy ta’lim muassasalarining ta’lim dasturlari asosida takomillashtirildi. 2024/2025-o’quv yilidan dual ta’lim tizimi joriy etildi. Hozirda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko’nikmalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bugun o’quv rejalari birinchi kursda 80 foiz nazariya va 20 foiz amaliy, ikkinchi kursda 50 foiz nazariya va 50 foiz amaliy, uchinchi kursda 30 foiz nazariya va 70 foiz amaliy, to’rtinchi kursda esa 20 foiz nazariya va 80 foiz amaliy mashg’ulotlar nisbatida tashkil qilingan.

Shuningdek, institutda budjetdan tashqari mablag’lar hisobidan yuridik shaxs maqomiga ega bo’lmagan amaliyot bazalarini tashkil qilish ishlari amalga oshirilmoqda.

- Menimcha, bu ko’pchilik uchun qiziq: nafaqat siz rahbarlik qilayotgan, umuman, barcha oliy o’quv yurtlarimizda tayyor pulni sarflash o’rgatiladi. Lekin uni topish haqida bilim berilishini eshitmaganmiz.

Bu haqda nima deysiz?

- Fikringizga unchalik qo’shilmayman. To’g’ri, oliy ta’lim muassasalarida, ayniqsa, moliyaviy va iqtisodiy yo’nalishtirish talabalarga pulni sarflash, budjetni boshqarish, moliyaviy rejalashtirish kabi bilimlar o’rgatiladi. Lekin shu bilan birga, pulni qanday topish, daromad manbalarini yaratish, biznes qilish yoki moliyaviy mustaqillikka erishish kabi mavzularda ham bilimlar beriladi.

Masalan, moliyaviy biznes reja, davlat budjeti, investitsiya va innovatsiyalar, antiqiroziy moliyaviy boshqaruv, ijtimoiy sohani moliyalashtirish, soliqlar va soliqqa tortish, moliyaviy tahlil, biznes rejalashtirish kabi fanlar yuqoridagi

fikrimizga misol bo’la oladi.

To’g’ri, bu bo’yicha qator kamchiliklar ham yo’q emas. Bular ta’lim dasturlaridagi kamchiliklar, amaliyot bilan aloqaning zaifligi, talabalarda moliyaviy mustaqillik darajasining pastligi, tadbirkorlik qobiliyatining sustligi kabilar.

Mazkur muammolarni amaliyotga yo’naltirilgan kurslar, tajribali mutaxassislar bilan ishlash, startap va innovatsion loyihalarni qo’llab-quvvatlash orqali bartaraf qilish mumkin.

Hozirgi kunda Samarqand iqtisodiyot va servis institutida mazkur jarayonlar yo’lga qo’yilgan hamda boshqa oliy ta’lim muassasalarida ham ushbu jihatlariga ahamiyat kuchayib bormoqda.

- Ayni paytda yoshlar orasida pul topishga munosabat mutlaqo o’zgarib ketgan. Ular orasida katta lavozimga ko’tarilib yoki kuchli mutaxassis bo’lib, moliyaviy mustaqil bo’lishni istaydiganlar juda kam.

Kriptoalyuta, treyding, Forex va hokazo. Bugun yoshlar ayni shular orqali pul topish, aniqrog’i, oson yo’l bilan boyishni istayapti. Lekin zamonaviy kasb deyilayotgan bu kabi ishlar ortidan chuv tushayotganlar ham istagancha topiladi.

Moliyaviy sohadagi olim kishi sifatida aytib-chi, ayni masalada, aniqrog’i, yoshlarni “zamonaviy trend”lardan qutqarish uchun bugun jamiyat oldida turgan vazifalar nimalardan iborat?

- Darhaqiqat, bu juda dolzarb va murakkab masala. Zamonaviy dunyoda yoshlarning moliyaviy mustaqillikka intilishi va yangi imkoniyatlar qidirishi tabiiy. Biroq kriptovalyuta, treyding, Forex kabi sohalarda “tez va oson pul topish” istagi ko’pincha noto’g’ri qarashlar va xavflarga olib keladi. Fikrimcha, bu muammoni hal qilish uchun jamiyat, ta’lim muassasalari va oila birgalikda ishlashi kerak.

Bunda birinchi navbatda yoshlarni moliyaviy savodxonlikka o’rgatish talab etiladi. Bu ularga moliyaviy xavf va imkoniyatlarni to’g’ri baholash imkonini beradi. Moliyaviy ta’lim dasturlari orqali yoshlar o’zlarining mablag’larini qanday boshqarishlari va xavfsiz sarmoya kiritish usullarini o’rganishlari kerak.

Ikkinchidan, real kasblar va malakalarda rag’batlantirish zarur. Aniqrog’i, yoshlarni kuchli mutaxassis bo’lish va an’anaviy kasblarda muvaffaqiyatga erishishda qo’llab-quvvatlash lozim. Toki ushbu yo’lda yutuqlarga erishish uchun bilim va ko’nikmalarini oshirib borishsin.

Eng muhimi, yoshi kattalar kichiklarga yaxshi namuna, ibrat bo’lishi kerak. Jamiyatdagi muvaffaqiyatli hamda halol ishbilarmonlar va mutaxassislar haqida o’sib kelayotgan avlod ko’proq bilishi zarur. Ularning tajribalarini bo’lishish va yoshlarni ruhlantirish orqali to’g’ri yo’l ko’rsatish muhim.

Bundan tashqari, ayni sohalarida huquqiy tartiblarni kuchaytirish ham muhim ahamiyatga ega. Kriptovalyuta va treyding kabi sohalarda tartib va huquqiy qoidalarni kuchaytirish orqali firibgarlik va aldovlarni kamaytirish kerak.

Va albatta, yoshlar bilan ochiq mu-loqot qilish va ularni zamonaviy trendlar haqidagi real ma’lumotlar bilan ta’minlash asosiy masalalardan biri. To’g’ri yo’naltirishda tajribali yoshlar bilan o’zaro tajriba almashish ham foydali bo’ladi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish orqali jamiyat yoshlarni moliyaviy savodxonlikka, kuchli malakaga va muvaffaqiyatli kelajakka yo’naltirishi mumkin.

- Lekin bu borada budjetdan, xususan, mahalliy budjetdan ma’lum bir ishlar qilinishi kerak emasmi?

Qaysiki, viloyat miqyosida mavjud moliyaviy imkoniyatdan kelib chiqib, yoshlarga zamonaviy kasblarni o’rganish-o’rgatish uchun imkoniyat, sharoit yaratish zarur emasmi?

- Rost, yoshlarni zamonaviy kasblarga o’rgatish masalasi har doim muhim bo’lgan va hozir bu yanada dolzarblashmoqda. Shu ma’noda Samarqandda ham yig’it-qizlarga kelajakda muvaffaqiyatli bo’lishlariga har tomonlama yordamlashish lozim.

Shu kungacha muayyan ishlar amalga oshirildi. Masalan, viloyat kasbiy ko’nikmalar mintaqaviy markazida 7 turdagi zamonaviy yo’nalishtirish bo’yicha kasb o’rgatib kelinmoqda. IT parkda yoshlarimizga zamonaviy bilimlar berilmoqda. Shu bilan birga, texnikumlar va politexnikumlarida yoshlarning zamonaviy kasblarni egallashlari uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda.

To’g’ri, hali oldinda katta vazifalar turibdi. Negaki, bugun zamon shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Yuqoridagi ta’kidlar o’tganingizdek, bugungi kun yoshlariga yanada zamonaviy, bozor talablariga mos keluvchi kasblarni o’rgatish dolzarb vazifa bo’lib qolaveradi.

Yoqubjon MARQAYEV suhbatlashdi.



URUSH KO’RMAY, TINCHLIKNING QADRIGA YETISH MUMKINMI?

Ikkinchi jahon urushi boshlanganida Samarqanddagi oziq-ovqat texnikumining 3-bosqich talabasi edim. Bir kuni ilmiy bo’lim mudiri kelib, o’qish to’xtatilib, xonalardan barcha jihozlarni chiqarishimiz kerakligini aytdi. Keyin qayerdandir juda ko’p karavotlar olib kelindi. Biz ularni xonalarga joylashtirdik. O’sha kunioyq vokzaldan ketma-ket yara-dorlarni keltira boshlashdi. Qaysiningdir oyog’i yo’q, boshqasida qo’l. Vahima boshladi. Bizni uyla jo’natishdi. O’sha vaqti 17 yoshi bola edim...

Samarqand tumanidagi Saxovat mahallasida istiqomat qiluvchi Ahmad Ochilov - hozir hayot bo’lgan ikkinchi jahon urushining samarqandlik 3 nafar qatnashchisidan biri. Otaxon o’tmish xotiralarini yodga olib, bugungi tinch va osoyishta hayotimizga shukronalar keltirdi.

...O’qish bo’lmagach, kolxozda ishlay boshladim. Shunday kunlarning birida dalada kartoshka uchun jo’yak tayyorlayotgan vaqtimda oldimga ot mingan brigadir kelib, ko’rishish uchun qo’lini uzatdi. Ko’rishganimgayoq qo’limga kishan solib, dod sol-sam, kaltaklashini aytdi va o’zi bilan olib ketdi.

Meni bog’ning omborxonasiga qamashdi. U yerda menga o’xshab “o’g’irlangan”lar ko’pchilik ekan. 100 nafarcha bo’lganimga uchashtavoviy kelib, yoshi kattalarni Kattaqo’rg’ondagi harbiy qismga jo’natdi. Bizni esa vokzal orqali Turkmanistonga, Ashxoboddagi harbiy o’quv markaziga olib ketishdi. Bu yerda bir oy ichida sobiq ittifoq davlatlaridan 3 ming nafardan ortiq bola yig’ildi. Ularning orasidan 10-sinfni tugatganlarni, xususan, meni ham alohida ajratib olib, urushga tayyorlay boshlashdi.

8 oylik tayyorgarlikdan keyin Bokudagi frontga jo’natishdi. U yerga yetib kelishimiz bilan jang maydoniga yuborildik. Komandir ikki qo’limizga ikki dona granata berib, belimizga mina (na to’pponcha va na mitti berilgan) bog’ladi. Topshiriq aniq: fashistlar kelsa, avval granatalarni otamiz, keyin yugurib borib, fashist tanklarining tagiga o’zimizni tashlaymiz. Bu topshiriqdan qochganlarni esa ortda qo’ylab turgan o’zimizning o’qchilar otib tashlashi aytildi.

Fashistlar rostdan ham keldi. Shu vaqt men hali 18 yoshga to’lmagan edim. O’limimni bo’ynimga olib, yonimdagi do’stlarim, xayolan olisdagi yaqinlarim, Vatanim bilan vidolashdim. Granatalar otila boshlandi. Portlashlar oralg’ida ikki tomondan ham askarlarning jon talvasasidagi faryodlari, boshingiz yonginasidan uchib o’tayotgan o’q ovozlari eshitilardi. Tanklar ustimizga kelishiga 50 metr qolgan-da kutilmaganda tog’ tomondan og’ir artilleriya otildi. Fashist tanklari, askarlari ikki tomonlama o’qqa olinib, yo’q qilindi va bu o’l ichida biz - yosh askarlarning sanoqlisigina omon qoldik.

Keyinchalik men tankchilar diviziyasi bilan Dnepr, Ukraina, Moldaviya, Vengriya, Chexoslovakiyani ozod qilishda ishtirok etdim. Germaniyada bo’ldim. Bu qirg’inbarotda yosh boshim bilan omon qolganimga o’z mo’jiza. Qaytib kelganimga, yur-timzidagi vaziyat ham yomon edi. Hamma narsa frontga yuborilgan, yo’qchilik, ocharchilikni boshdan o’tkazdik. Men ko’rgan narsalarni hech bir avlodim ko’rishini istamayman...

Ahad ota shu yilning 10-mart kuni 100 yoshga to’ldi. Urushni ko’rgan, uning bor azob va uqubatlarini o’z boshidan o’tkazgan bu kabi aziz insonlar juda kam. Ularni qadrlash, maslahatini va duosini olish har birimiz uchun katta sharaf. Shundaygina urush ko’rmay turib tinchlikning qadriga yetishni o’rganamiz.

Asqar BAROTOV.

BU FAKT!

Statistika boshqarmasiga ko’ra, viloyatda ta’lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmi 174,2 milliard so’mni, o’sish sur’ati o’tgan yilning mos davriga nisbatan 174,2 foizni tashkil etdi.

Bunda oliy ta’lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, 2025-yil yanvar oyidagi ulushi 54,9 foizga yetdi.

“Besh tashabbus olimpiadasi” musobaqalariga start berildi

Mahallalarda istiqomat qiluvchi yoshlar o'rtasida “Besh tashabbus olimpiadasi”ning joriy yilgi birinchi mavsumi boshlandi.



Bu yilgi olimpiadada mahalla yoshlari 14-30 yosh toifasida sportning stritbol, workout, shaxmat, shashka, yengil atletika, futbol, mini-futbol stol tennisi, aromrestling, gimnastika, voleybol, kurash va gandbol hamda adaptiv sport turlari bo'yicha 5 bosqichdan iborat musobaqalarda bellashadi.



Viloyat sport boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, hozirga qadar viloyatda olimpiadada ishtirok etish uchun “5 tashabbus.uz” platformasidan 323 ming nafar yoshlar ro'yxatdan o'tgan.

Joriy yilning 11-13-mart kunlari olimpiada doirasida shashka bo'yicha dastlabki bosqich musobaqalari bo'lib o'tadi.



14-15-mart kunlari sportning vorkaut hamda 17-19-mart kunlari shaxmat bo'yicha birinchi (ko'chalararo mahalla) bosqichi o'tkaziladi. Shuningdek, gandbol bo'yicha musobaqalar ikkinchi, ya'ni mahallalararo sektor bosqichidan boshlanib, 24-26-mart kunlari tashkil etiladi.

Yurtimizda nemis tilini o'qitish metodikalarining rivojlanishida professor Muhammadjon Mamatovning munosib hissasi bor.

M.Mamatov 1946-yil Pa-yariq tumanida ziyoli oilada tug'ildi. 1962-yil Samarqand davlat universiteti chet tillar fakultetining nemis tili bo'limiga o'qishga kirdi. 1967-yil ilm dargohini imtiyozli diplom bilan tugatib, universitetning nemis tili kafedrasida ishlay boshladi. Sobiq ittifoqning eng nufuzli universitetlaridan biri bo'lgan Leningrad universitetida ikki yil malaka oshirdi. O'sha yerda aspiranturani o'tab, professor V.Pavlov rahbarligida “Nemis va o'zbek tillarida ikkilamchi predikatsiya” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Mohir rahbar, taniqli olim

Domla 1973-1985-yillarda nemis filologiyasi kafedrasida o'qituvchi, katta o'qituvchi, dotsent va kafedra mudiri lavozimlarida ishladi. 1985-yildan 1989-yilgacha chet tillar fakulteti dekani lavozimida faoliyat ko'rsatdi. 1990-yilda “Hozirgi o'zbek tilida ikkilamchi predikatsiya” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Ustozning Samarqand davlat chet tillar institutidagi faoliyati ham sermazzun kechdi. Professor bu oliy darjda dastlab kafedra mudiri, so'ngra o'quv ishlari bo'yicha prorektor, 2003-yildan umrining oxiriga qadar institut rektori lavozimida ishladi. Ustoz ta'lim tizimini rivojlantirish, xorijiy tillarni o'qitishning ilg'or usullarini joriy etish va institutning ilmiy salohiyatini oshirishda jonbozlik ko'rsatdi.



Rektor sifatida izlanuvchilarning ilmiy tadqiqotlarini qo'llab-quvvatladi, xorijiy tillar bo'yicha yangi darslik va qo'llanmalar yaratilishiga hissa qo'shdi. Uning rahbarligida institut o'qituvchilari va talabalar xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda ilmiy izlanishlar olib borish imkoniyatiga ega bo'ldi. Jumladan, institut Angliya,

Germaniya, Yaponiya, Koreya, Italiya va boshqa davlatlarning nufuzli universitetlari bilan hamkorlik shartnomalarini imzoladi, talabalar va o'qituvchilar uchun xorijda stajirovka va amaliyot dasturlari tashkil etildi, chet el professorlari ishtirokida ilmiy konferensiyalar, seminarlar o'tkazildi. Yangi o'quv dasturlari joriy etildi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quv jarayoniga tatbiq qilindi. Yangi texnologik vositalar keltirildi, kutubxona fondi boyitilib, zamonaviy darslik va ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlandi, institut infratuzilmasi modernizatsiya qilindi.

M.Mamatov nafaqat pedagog va rahbar, balki ilmiy tadqiqotchi sifatida ham mehnat qildi. Domla umri mobaynida ijodiy izlanishda bo'ldi. U respublika oliy o'quv yurtlari

uchun darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar yaratdi, ko'plab ilmiy maqolalar va risolalar chop ettirdi. Jumladan, domlaning huquqshunoslik fakulteti talabalari uchun mo'ljallangan “Nemis tili”, nemis filologiyasi yo'nalishi talabalari uchun “Deutsch (nemis tili)” darsliklari, nemis tili nazariy grammatikasiga oid qator ilmiy risolalar alohida ahamiyatga ega.

Ustozning ta'lim va ilm-fan sohasidagi xizmatlari institut rivoji va ta'lim sifatining oshishida muhim o'rin tutadi. Uning boshqaruvi davrida ilgari surilgan ilg'or g'oyalari va tashabbuslari ham institut faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Kuvonchbek BEGMATOV, Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti.

Turli kasalliklar, xususan, o'limga sabab bo'layotgan og'ir xastaliklarni erta aniqlash va davolashda Samarqand davlat tibbiyot universitetining professor-o'qituvchilari, malakali shifokorlarning hissasi katta.

Olis hududlarda murakkab operatsiyalar o'tkazilyapti

Universitetning 1-davolash fakulteti 2-xirurgik kasalliklar kafedrasida jamoasi nafas olish tizimi, yurak-qon tomir kasalliklari hamda qizilo'ngach va jigarni miniinvaziv laparoskopik davolash usullarini qo'llab, yaxshi natijalarga erishmoqda. Bulardan tashqari, professor-o'qituvchilar turli yoshdagi bemorlarda kuyish, oshqozon va ichak trakti, ichki a'zolar shikastlanishida qon ketishni to'xtatishda zamonaviy miniinvaziv endoskopik jarrohlik yo'li bilan tashxislash va davolashda o'ziga xos tizim yaratgan.

Professor-o'qituvchilarning tomonidan Qo'shrabot tumani tibbiyot birlashmasida yuqori texnologik operatsiyalar bajarilmoqda. Masalan, o't qopidagi muammolar, bel churrasi va boshqa kasalliklar bilan bezovtalangan bemor-

larda yuqori miniinvaziv texnologiyalar qo'llanib, jarrohlik amaliyotlari o'tkazilyapti. Bu bilan olis qishloqlarda yashaydigan oddiy odamlarning og'iri yengil, uzog'i yaqin bo'lib, sarson-garchiliklarning oldi olinayapti. Qolaversa, murakkab jarrohlik amaliyotlari shu hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan tibbiyot xodimlari uchun mahorat darsi bo'lyapti.

Past Darg'om tumanidagi tibbiyot muassasalarida ham kishilar orasida yuqumli bo'lmagan kasalliklar profilaktikasi, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash, to'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollik va uning ahamiyati bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda.

Xushvaqt UMIDOV, Samarqand davlat tibbiyot universiteti katta o'qituvchisi.

Mehr har qanday tutumdan ustun

Oiladagi rishtalarning mustahkamligi er va xotinning yakkilligi, bir-biriga hurmati va ishonchiga bog'liq. Ammo shunday fazilatlar mujassam bo'lsa-da, oilaning totuvligiga erishish oson emas. Buning uchun har kuni inson o'zi bilan kurashishi, o'zi va atrofdagilar uchun munosib sharoit yaratishga intilishi lozim.

Samarqand shahrining Sayqal mahallasida yashovchi Obloqu Saidov va Dilorom Saidova oilasi mana shunday qiyinchiliklardan o'tib, turmushda uyg'unlikka erishganlardan.

- Mashaqqatlarni birgalikda yengdik, hech qachon mehnatlarimizni bir-birimizga iddao qilmadik, - deydi Diloromxon. - Men xafa bo'lsam, dadasi shirin so'z bilan, bir dona gul bilan bo'lsa ham kayfiyatimni ko'taradi. Shu bilan olam guliston. U kishining tushkunlikka tushganini ko'rsam, tansiqroq bir taom pishiraman, yaxshi gaplardan gapirib, ko'nglini ko'tarishga harakat qildim.



Shunday qilib bu mehribon oilada to'rt nafar farzand ulg'aydi, o'n besh nevara, besh evra bobo-buvilarining mehri qalbinida mudom. Farzandlar ham oilasini shu tutumda ushlab harakat qilib, mehri hamma narsadan ustun qo'yishgan.

Hamida KARIMOVA, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

12-MART

Nasim HOSHIMOV - (1920-2000) Samarqand shahrida tug'ilgan. O'zbekiston xalq artisti.

Qo'ziboy MAMARAIMOV - (1946-2024) Payariq tumanida tug'ilgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, iqtisod fanlari doktori, professor.

14-MART

Barot BOYQOBILOV - (1937-2006) Urgut tumanida tug'ilgan. O'zbekiston xalq shoiri, Alisher Navoiy nomidagi davlat mukofoti laureati.

Nodir JONUZOQ - 1976-yilda Bulung'ur tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.

15-MART

Yuriy BURYAKOV - (1934-2015) Qirg'izistonning O'sh viloyatida tug'ilgan. Arxeolog olim, akademik. “Do'stlik” ordeni sohibi.

O'ltkir RAHMAT - 1948-yilda Toyloq tumanida tug'ilgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist, Xalqaro Cho'lpon mukofoti sohibi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.

REKLAMA, E'OLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAJAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

Yaxshinor ALLAYOROV

Viloyatimiz sog'liqni saqlash sohasi va oliy ta'lim tizimi fido-yilaridan biri, jamoatchilik faoli Al-layorov Yaxshinor Norboboyevich 79 yoshida vafot etdi.

Y.Allayorov 1946-yilda Paxtachi tumanining Po'latchi qishlog'ida tug'ildi. Tumandagi 20-o'rt maktabni imtiyozli tamomlab, 1963-yilda Samarqand davlat tibbiyot instituti (hozirgi Samarqand davlat tibbiyot universiteti)ning davolash fakultetida o'qidi. Institutni bitirgach, mehnat faoliyatini Ziyovuddin qo'rg'onidagi 2-markaziy shifoxonada jarroh sifatida boshladi. Keyinchalik shifoxonaning xirurgiya bo'limini boshqardi. 1969-1980-yillarda Samarqand davlat tibbiyot institutining akusherlik va ginekologiya kafedrasida klinik ordinatordir, aspirant, assistent lavozimlarida mehnat qildi. Bir necha bor xalq deputatlari Samarqand shahar hamda viloyat Kengashlariga deputat etib saylandi.

Ustoz yaxshi shifokor bo'lish barobarida rahbarlik salohiyatini ham namoyon etdi. 1980-1987-yil-

larda viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasida bosh akusher-ginekolog, 1987-2008-yillarda Samarqand tibbiyot kolleji direktori lavozimlarida faoliyat ko'rsatdi.

Viloyat hokimligi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmasi boshlig'i maslahatchisi, Samarqand davlat tibbiyot instituti akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bilan ishlash bo'yicha prorektor, akusherlik va ginekologiya kafedrasida dotsenti sifatida ham xalqning, jamoatchilikning e'tiborini qozondi.

Tashabbuskor rahbar 2012-yildan buyon Samarqand davlat tibbiyot universiteti kasaba uyushmasi qo'mitasining raisi vazifasini sidqidildan bajarib kelayotgan edi.

Yaxshinor Norboboyevich ilmiy izlanishlar olib borib, 130 dan ortiq ilmiy-uslubiy qo'llanmalar, 5 ta darslik, 11 ta o'quv qo'llanma, 32 ta ilmiy maqola, 6 ta ilmiy-ommabop risola, 76 ta uslubiy tavsiyanoma chop ettirdi. Bu ishlar oliy va o'rta maxsus tibbiy ta'lim tizimida amaliyotga tatbiq etildi.



Y.Allayorov I darajali «Sog'lom avlod uchun», «El-yurt hurmati» ordenlari bilan mukofotlandi, jamoat ishlaridagi faolligi uchun I darajali “Mehnat faxriysi” nishoniga loyiq ko'rildi.

Yaxshinor Allayorovning fidoyiligi, jonkuyarlik va insoniylik fazilatlarini qalbimizda mangu yashaydi.

VILOYAT HOKIMLIGI HAMDA SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI JAMOASI.

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aminov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasida marhum Yuldashva Maxiya Norbutayevnaga (2024-yil 2-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rning Aminov Mashhurjon Yusufovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Sug'diyona maskani, 14/12-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirova Mavluda Turanboynova notarial idorasida marhum Nasriyeva Gulchexra Baxriyevnaga (2024-yil 18-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rning Qodirova Mavluda Turanboynova notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Farhod ko'chasi, 34-uy.

Qodaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Raxmatova Zumrat Xayrullayevnaga (2024-yil 21-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rning Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich

notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur ko'chasi.

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Sultonov Shirinboy Islomovichga (2024-yil 11-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rning Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur ko'chasi.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Erjigitov Davron O'tamuratovichga (2023-yil 30-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqloq ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Azimova Kamola Hamzayevna notarial

idorasida marhum Karabayev Xudoyberdiga (2023-yil 7-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rning Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Ipak yo'li ko'chasi, 18-uy, 51-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Fazilov Nuridin Narzikulovichga (2024-yil 5-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Mustafayev Kamol Sherqulovichga (2024-yil 18-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-“A” uy.

Ism inson hayotining ajralmas bo'lagi. Sababi kishiga har kuni ismi bilan murojaat qilinadi. Shuning uchun ism insonga har tomonlama yoqishi, mos bo'lishi kerak. Ism tanlashda odamlar qadimdan o'z milliyatiga xos serma'no nomlarni kush ko'rgan. Masalan, o'g'il bolalarga dovyurak, qo'rqmas bo'lsin deya Bahodir, Azamat, Pahlavon kabi ismlar qo'yilgan bo'lsa, qiz bolalarga chiroyli, orasta, nazokatli bo'lsin degan niyatda Go'zal, Dilbar, Lobar, Gulchehra kabi ismlar berilgan.

Mulohaza uchun mavzu



Kechagi va bugungi

ISMLAR

QANCHALIK BIR-BIRIDAN FARQ QILADI?



tushunib, keyin qo'llashimiz maqsadga muvofiq. Haqiqatda ism inson ruhiyatiga ta'sir qiladi. Agar shunday bo'lmaganida payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam islomga kirgan mushrikning ba'zilarining ismlarini o'zgartirmasdi. Bu haqda tarixiy kitoblarda qayd etilgan.

Shuningdek, payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning onalari Amina homiladorlik paytida uch marta tushida bir kishi "Bolangning ismini Muhammad qo'y", degani haqidagi ma'lumotlar ham islomiy kitoblarda keltirilgan. Muhammad ismining ma'nosi – to'xtovsiz, tinimsiz, hamisha maqtaladigan, deganidir.

O'rta Osiyoga islom kelganidan buyon ota-bobolarimiz farzandlariga Muhammad, Muhammadali, Nurmuhammad, Muhammadi, Oysha, Xadicha kabi ismlarni ko'proq qo'ygan. Bu an'ana asrlar osha davom etib kelgan. Faqat sobiq sovet hukumati davriga kelib, ushbu ismlar bolaning tug'ilganlik guvohnomasiga Mamat, Mamadali, Nurmamat deb buzib yozilgan. Odamlar ham bora-bora ushbu ismlarga ko'nikkan. Hatto ba'zi ismlar ruscha talaffuz qilina boshlagan. Masalan, Gulnora, Gullola, Gulandom kabi gul bilan boshlanadigan ismlar so'zlashuvda "Gulya", Alijon, Alisher, Alibek kabi ismlar "Alik"ka aylangan. Borya, Fedya, Kolya ismlari istiqloqga erishganimizdan so'ng Botir, Farhod, Kamol kabi o'zbekcha ismlarga aylandi. To'g'irrog'i, odamlar qisqartma ismlardan voz kechib, kishilarga o'z ismi bilan murojaat qiladigan bo'ldi.

O'sha davrda tug'ilganlik haqidagi guvohnomalarga o'zbekcha

ism-shariflar ruscha talaffuzda buzib yozildi. Buning asorati haligacha davom etib kelyapti. Masalan, tahririyatga maqola ko'tarib kelgan kishilarning ayrimlari pasportidagi familiyasi qanday yozilgan bo'lsa, gazetaga ham shunday chiqishini istaydi. Holbuki, gazetxon buni o'qigach, tahririyat xodimlari xato yozibdi, deb o'ylaydi. Hamon oramizda ism-sharifidagi xatolarni tuzatishni istamaydiganlar topiladi.

Nima bo'lgan taqdirda ham bugun odamlarning tafakkuri taraqqiy etdi. Endi ular ismlarning inson hayotiga ta'sir etishini yaxshi biladi. Farzandning yetuk mutaxassis, olim, solih, kelajagi porloq bo'lishini istagan kishilar ism tanlash borasida yetti o'lchab, ber kesadi. Buni tahlillardan ham ko'rishimiz mumkin. Ma'lumotlarga ko'ra, Muhammadali va Soliha ismlari 2023-yilda eng ko'p qo'yilgan ismlar ro'yxatida birinchi bo'lgan, ya'ni 24 mingdan ortiq qizaloqqa Soliha deb, 27 mingdan ortiq chaqaloqqa Muhammadali deb ism berilgan. Shuningdek, qiz bolalarga Yasmina, Muslima, Xadicha, Imona, Shukrona degan ismlar ko'proq qo'yilgan bo'lsa, o'g'il bolalarga Mustafo, Abdullloh, Muhammad, Muhammadyusuf kabi ismlar berilgan.

XORIJLIKLAR QANDAY ISMLARNI YOQTIRADI?

Keyingi yillarda Rossiyada o'g'il bolalarga Aleksandr, qiz bolalarga Anastasiya ismlari ko'proq qo'yilayotgan ekan. Xuddi shunday Xitoyda Vey va Fang, Germaniyada Ben va Emma, Yaponiyada Minato va Sakura, Hindistonda Arav va Adiya, Italiyada Franchesko va Sofiya ismlari mashhur va ko'p tarqalgan ismlar hisoblanarkan. Ushbu ismlar ham o'sha xalqlarning milliyati asosida vujudga kelgan.

Xurshida ERNAZAROVA.



nogironligi bo'lgan shaxslarga moddiy yordamlar tarqatilmogda, iftorliklar tashkil qilinmogda.

Ramazon – nafaqat ro'za oyi, balki ma'naviy poklanish fursatidir. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) shunday

Samarqand sinergetika maktabi asoschisi

Falsafa fanlari doktori, professor

Baxtiyor To'rayev 75 yoshda

Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi direktori maslahatchisi Baxtiyor To'rayev ziyoli oilada kamol topib umrini ma'rifat, ilm-fanga bag'ishlab kelayotgan inson. Otasi Omonxon To'raxonov ma'riflatli kishilardan edi. Onasi Oydin Nuriddinova chorvachilik va bog'dorchilikda dong taratgan dehqon oilasida tarbiya topgan.



B.To'rayev Payariq tumanidagi 6-maktabni tamomlab, 1968-yilda Toshkent davlat universitetiga o'qishga kirdi. Oliyog'ohni imtiyozli diplom bilan bitirgach, falsafaning ontologik muammolarini tadqiq etishga kirishdi. Uning Beruniy merosi, olamning kosmologik manzarasi, sun'iy intellekt imkoniyatlari, fazo va vaqtning chekliligi va cheksizligi muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlari ilmiy jamoatchilikning e'tiborini qozondi.

Shu bois universitet taqsimot komissiyasi B.To'rayevga O'zFAning Falsafa va huquq institutiga yo'llanma berdi. Uning fazo-vaqt strukturasi rivojlanishida dialektik ziddiyatlar haqidagi tadqiqoti sobiq ittifoq yosh olimlari tanlovda maxsus diplom bilan taqdirlandi.

1979-yilgacha mazkur institutda ishlagan yosh olim falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini oldi. Keyin O'zFAning ijtimoiy fanlar bo'limida ilmiy kotib, falsafa kafedrasida katta o'qituvchisi, ToshDUning falsafa kafedrasida mehnat qildi. Moskva davlat universitetining falsafa kafedrasida professorlari P.Alekseyev, O.Fayzullayevlar ilmiy maslahatchiligi asosida doktoranturada o'qidi. 1992–1993-yillarda ToshDU qoshidagi ijtimoiy fanlar o'qituvchilari malakasini oshirish instituti dotsenti sifatida faoliyat yuritdi.

1993-yildan I.Mo'minov nomidagi falsafa va huquq institutining fan va texnika falsafasi bo'limiga rahbarlik qildi. Bu muassasada "Borliqning fazo-vaqt strukturasi rivojlanishi haqidagi konsepsiyalarni falsafiy asoslash" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Olim O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tizimida "Yosh olimlar klubi"ni tashkil etdi. Yurtimizda dastlabki ilmiy-om-mabop va fantastik maqolalarini chop etuvchi "Sirli olam" jurnalining tashkil etilishida tashabbuskorlik ko'rsatdi.

Professor B.To'rayev ilmiy tadqiqotlari davomida fazo va vaqt aloqadorligi, miqdor va sifat xususiyatlari, qora tuynuklar fizikasi qonuniyatlariga ko'ra, ko'ndoda mikro, makro va megadunyalarning bir-biriga bog'liqligi, koinot rivojlanishining o'ziga xos belgilari, Beruniy va Ulug'bek astrologik hisob-kitoblarining bir-biriga uyg'unligi, tasavvuf ta'limotida Mahdumi A'zamning qarashlari, aholi bandligi muammosini hal etish qonuniyatlarini falsafiy jihatdan asosladi, tahlil qildi. O'zbekiston faylasufi milliy jamiyati tashkilotchilaridan biri sifatida milliy g'oya va milliy mafkuraning konseptual asoslarini ishlab chiqishda qatnashdi. Hozirgi paytda

deganlar: "Kim Ramazon oyini iymon va ixlos bilan o'tkazsa, uning oldingi gunohlari kechiriladi."

Shuningdek, Rasululloh (s.a.v.) yana shunday hadis keltiradilar: "Ramazon kelganda, jannat eshiklari ochiladi, do'zax eshiklari yopiladi va shaytonlar kishanlanadi." Bu oyda har bir inson o'zini tarbiya qilishi, gunohlardan tiyilishi, yaxshi amallarini yanada ko'paytirishi kerak. Zero, Ramazon – nafaqat ochlik va chanoqlikka bardosh berish oyi, balki sabr va taqvo, iroda va ruhiy tarbiya o'yidir. Bu oyda Qur'oni karim tilovatini ko'paytirish, nafil ibodatlar, duo va zikrlar bilan Alloh taolaga yaqinlashish katta fazilatga ega.

Ramazon oyida musulmon kishi nafaqat o'zini tarbiya qilishi, balki boshqalarga ham yaxshilik ulashishi kerak. Bu oyda kam ta'minlangan, muhtoj

insonlarga xayot ko'rsatish, sadaqa va xayriya qilish – juda katta savobga ega. Rasululloh (s.a.v.) marhamat qiladilar: "Ramazon oyida har bir yaxshi amalning savobi boshqa oylardagi savobdan yuz karra ko'p bo'ladi."

Bu oyda ro'za tutish, zakot berish, muhtojlarga yordam ko'rsatish, qarindoshlar va qo'shnilar holidan xabar olish, insonlarga iliqlik muomalada bo'lish, ularning xafagarchiligiga sabab bo'lmaslik, tilimiz va qo'llarimizni yomonlikdan tiyish bizga ulkan mukofot olib keladi.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, bu oy – birdamlik, mehr-muruvvat va ezgulik o'yidir. Biz ham bu fursatdan unumli foydalanib, Allohning roziligiga erishish uchun har kunimizni savobli va xayrli ishlar bilan o'tkazishimiz lozim.

Ahmadxon ALIMOV, viloyat bosh imom-xatibi.

RAMAZON – ma'naviy yuksalish va ezgulik oyi

Alloh taolo insonlarga shunday ulug' oyni ato etganki, unda yaxshilik va savobli amallar ko'paytiriladi, gunohlari kechiriladi, inson ma'naviy yuksalish va ruhiy poklanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ramazon – qalblar soflanadigan, yuraklar ezgulikka to'lib-toshadigan, inson ma'rifat va taqvo erishadigan muborak oydir. Bu oy har bir musulmon uchun Allohga yanada yaqinlashish va hayotida yangi bosqichni boshlash uchun buyuk imkoniyatdir.

Bu yilgi Ramazon oyi mamlakatimizda beqiyos ezgulik, samimiyat va mehr-muruvvat muhitida o'tmogda. Yurtimizda Ramazonga bo'lgan ehtirom tobora ortib, insonparvarlik g'oyalari yanada keng tarqalmogda.

Prezidentimizning Ramazon oyi munosabati bilan yo'llagan tabrigi xalqimiz uchun katta ma'naviy quvonch va umid bag'ishladi. Tabrikda qayd etilganidek,

bu muborak oyda bir-birimizga, ayniqsa, muhtojlarga, qariyalarga va nogironlarga, kam ta'minlangan oilalarga g'amxo'rlik ko'rsatish, ularning holidan xabar olish, jamiyatimizda mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlashda katta ahamiyatga ega.

Yurtdoshlarimiz Ramazon oyining ruhini to'la his qilishi, uning barakasidan bahramand bo'lishi uchun viloyatimizda ham ehtiyojmand oilalar va qariyalarga,

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 14 562 nusxada chop etildi. Buyurtma 121. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

X.ERNAZAROVA.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

Gazetaning navbatdagi soni 2025-yil 15-mart, shanba kuni chop etiladi.

ISSN-201667X



9 772010 667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda

